

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan
2025 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda* - “NKMK” AJ, Jamiyat) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida 2025-yil uchun **9 ta** banddan iborat **“Yo‘l xaritasi”** tasdiqlandi va ijrosi nazoratga olindi.

“NKMK” AJ faoliyatida monopoliyaga qarshi kurashish, uning talablarini buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlar yuzasidan xabar beruvchilar uchun Jamiyatning rasmiy veb-saytida alohida elektron tizim va aloqa kanallari tashkil etilgan.

Shu bilan birga, Jamiyatda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish reglamenti” tasdiqlangan va ushbu reglament asosida xabarlar qabul qilinishi yo‘lga qo‘yilgan.

Jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali tashkil etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va Jamiyat ishchi-xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, brifinglar hamda seminarlar o‘tkazildi.

Komplayens xizmati tomonidan Jamiyatning ishchi-xodimlariga O‘zbekiston Respublikasining **“Raqobat to‘g‘risida”gi** Qonunning mazmun mohiyatini tushuntirish maqsadida o‘tgan davr davomida **124 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **10 527 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

Xususan, Jamiyatning Shimoliy kon boshqarmasi, Markaziy kon boshqarmasi, Janubiy kon boshqarmasi, “Qililqum” kon boshqarmasi va “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Geologiya qidiruv ekspeditsiyasi, Markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasi, Markaziy moddiy texnik bazasi va 3-sonli Avtokorxonalarining buxgalteriya, moddiy-texnik ta’minot, marketing, sotish va shartnomalarni ta’minlash bo‘limlarining xodimlari o‘rtasida Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni bartaraf qilish yuzasidan seminarlar o‘tkazildi.

Mazkur seminarlar to‘g‘risidagi axborot va ma’lumotlar Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb saytiga joylashtirildi.

Targ'ibot tadbirlari Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalar asosida tashkil etildi.

Bundan tashqari, Komplayens xizmati monopoliyaga qarshi ma'sullari tomonidan Jamiyat xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan o'tkazilgan o'quv seminar natijalari bo'yicha 2025-yilning mart oyida "Qizilqum" kon boshqarmasining **22** nafar, aprel oyida "Janubiy" kon boshqarmasining **30** nafar hamda sentabr oyida Zarafshon qurilish boshqarmasining **25** nafar buxgalteriya va moddiy-texnik ta'minot bo'limi xodimlariga O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonunchiligiga oid test sinovlari o'tkazildi.

"NKMK" AJning 2024 yil 2 iyuldagi 418-son buyrug'iga asosan jamiyat faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida Komplayens xizmati (raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari ijrosi yuzasidan) bilan majburiy tartibda kelishish belgilangan.

Komplayens xizmati tomonidan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini huquqiy va raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari hamda korrupsiyaviy ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etilgan. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha jami **7 341 ta** (*6 432 ta buyruq va 909 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar ekspertizadan o'tkazildi. Ekspertiza natijasida **156 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida 2024 yil dekabr va 2025 yilning yanvar oyida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi mumkin bo'lgan sohalaridagi xavflar o'rganildi. Buning natijasida, **1 478 ta** funksiyalar baholanib, shundan 1 ta "yuqori", 25 ta "o'rta" va 1 452 ta "past" darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025 yil 23 yanvarda **14 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi va **12 ta** bandning ijrosi to'liq ta'minlandi.

Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **1 189 ta** kontragentlar tekshirildi. "NKMK" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **15 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o'tkazildi.

2025 yilda Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va amalga oshirilgan ishlar haqida Komplayens xizmati faoliyati yuzasidan **7** marotaba ommaviy axborot vositalari va jamiyatning rasmiy veb-sayti orqali chiqishlar amalga oshirildi.

Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik

va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida **2025 yilning 30 yanvar kuni** “NKMK” AJ Markaziy apparati binosida, **12 mart va 17 iyul kunlari** Navoiy shahridagi “Farxod” madaniyat saroyining kichik majlislar zalida **brifing** o‘tkazildi, bundan tashqari **2025 yilning 20 noyabr kuni** Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan **“Ochiq eshiklar kuni” tadbiri** tashkil etildi. Mazkur tadbirlar ommaviy axborot vositalarida, jamiyatning rasmiy veb-saytida hamda telegramm kanallarida yoritildi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori ijrosi bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2025 yilning 8 aprel kuni e’lon qilingan 2024 yil yakunlari bo‘yicha **reyting baholash** natijalariga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlari orasida “NKMK” AJ **96 ball** bilan **faxrli 1-o‘rinni egalladi**.

“NKMK” AJ faoliyatida Komplayens xizmati ma’sullari tomonidan kelgusida Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rilishi ma’lum qilinadi.

Komplayens xizmati boshlig‘i



R.F.Avezov